O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324(Print)

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 372.881.111.1

Nodirbek A. BAHRONOV,
Mustaqil izlanuvchisi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O‘zbekiston
E-mail: bahronovnodirbek@gmail.com, ORCID: 0009-0006-2228-9548

Professor, DSc M.Axmedova taqrizi asosida

SO‘ZLARNI YAKKA HOLDA VA KOLLOKATSIYALAR ORQALI O‘RGANISH: YUQORI SINF O‘QUVCHILARINING YOZMA VA OG‘ZAKI NUTQIGA TA’SIRINING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya

Umumta’lim maktablarida ingliz tili so‘z boyligi hanuzgacha asosan yakka so‘zlar va ularning o‘zbekcha tarjimasi shaklida o‘rgatilmoqda. Maqolada ushbu yondashuv so‘zni uning tipik hamrohlari bilan birga o‘rganishga asoslangan kollokatsion yondashuv bilan qiyoslanadi hamda har ikkisining 8–9-sinf o‘quvchilari yozma va og‘zaki nutqiga ta’siri tahlil qilinadi. Qiyoslash ikkinchi til leksikasini o‘zlashtirish, formulaik til va korpus lingvistikasiga oid tadqiqotlarga, darslik mavzularining tahliliga hamda Buxoro viloyatining 13 ta umumta’lim maktabida 1500 ga yaqin o‘quvchi ishtirokida o‘tkazilgan tajriba-sinov jarayonidagi kuzatishlarga tayanadi. Ikki yondashuv to‘qqizta mezon bo‘yicha solishtiriladi. Tahlil yakka so‘zlarni o‘rganish shakl va ma’no bog‘lanishini tez hosil qilishini, ammo so‘zning qo‘llanishi haqida bilim bermasligini va natijada do a mistake, strong rain kabi ona tiliga asoslangan xatolarga olib kelishini ko‘rsatadi. O‘qituvchilar uchun «so‘z + hamrohlar» integratsiyalashgan tartibi taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: yakka so‘zlarni o‘rganish, kollokatsiya, leksikani o‘zlashtirish, formulaik til, so‘zni bilish, ona tili ta’siri, korpus, yozma nutq, og‘zaki nutq.

ИЗУЧЕНИЕ СЛОВ ИЗОЛИРОВАННО ИЛИ В СОСТАВЕ СЛОВОСОЧЕТАНИЙ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ НА ПИСЬМЕННУЮ И УСТНУЮ РЕЧЬ УЧАЩИХСЯ СТАРШИХ КЛАССОВ

Аннотация

В общеобразовательных школах английская лексика по-прежнему преподаётся в основном в виде отдельных слов с узбекским переводом. В статье этот подход сопоставляется с коллокационным подходом, при котором слово изучается вместе с его типичными сочетаниями, и анализируется влияние каждого из них на письменную и устную речь учащихся 8–9 классов. Сопоставление опирается на исследования в области усвоения лексики второго языка, формульного языка и корпусной лингвистики, на анализ тем учебника, а также на наблюдения в ходе педагогического эксперимента в 13 общеобразовательных школах Бухарской области с участием около 1500 учащихся. Два подхода сравниваются по девяти критериям. Анализ показывает, что изучение отдельных слов быстро формирует связь формы и значения, но не даёт знаний об их употреблении, что приводит к ошибкам под влиянием родного языка (do a mistake, strong rain). Предложена интегрированная процедура «слово + сочетания».

Ключевые слова: изучение отдельных слов, коллокация, усвоение лексики, формульный язык, знание слова, влияние родного языка, корпус, письменная речь, устная речь.

LEARNING WORDS IN ISOLATION VERSUS THROUGH COLLOCATIONS: A COMPARATIVE ANALYSIS OF THE IMPACT ON THE WRITTEN AND ORAL SPEECH OF UPPER-GRADE STUDENTS

Annotation

In general secondary schools, English vocabulary is still taught mainly as single words paired with their Uzbek translations. This article compares this single-word approach with collocation-based vocabulary learning, in which a word is learned together with its typical partners, and analyses how each approach affects the written and oral speech of grade 8–9 students. The comparison draws on research in second language vocabulary acquisition, formulaic language and corpus linguistics, on an analysis of textbook units, and on observations made during a pedagogical experiment in 13 general secondary schools of Bukhara region involving about 1500 learners. The two approaches are contrasted according to nine criteria, including the unit of learning, the aspects of word knowledge covered, the role of the first language, typical errors, fluency and learner autonomy. The analysis shows that single-word learning establishes form–meaning links efficiently but leaves learners without knowledge of how words are used, which results in first-language-based errors such as do a mistake or strong rain. An integrated “word + partners” procedure is proposed for classroom use.

Keywords: single-word learning, collocation, vocabulary acquisition, formulaic language, word knowledge, L1 transfer, corpus, written speech, oral speech.

O‘zbekistondagi 8-sinf o‘quvchisining lug‘at daftarini ochsangiz, katta ehtimol bilan ikki ustunni ko‘rasiz: chapda inglizcha so‘z, o‘ngda uning o‘zbekcha tarjimasi – challenge – qiyinchilik, decision – qaror, rain – yomg‘ir. Bu shakl so‘z o‘rgatishning uzoq an’anasini aks ettiradi va uning aniq amaliy afzalliklari bor: o‘quvchi qisqa vaqtda ko‘p so‘z yodlaydi, o‘qituvchi esa bu bilimni diktant yoki tarjima testi orqali tez tekshira oladi.

Biroq aynan shu o‘quvchi insho yozganda yoki biror mavzuda gapirganda I did a mistake in the test yoki Yesterday there was a strong rain kabi gaplar paydo bo‘ladi. Bu gaplardagi har bir so‘z o‘quvchiga tanish va to‘g‘ri yozilgan, ammo birikmalar ingliz tilida so‘zlashuvchilar qo‘llaydigan birikmalar emas. A.Pawley va F.Syder an’anaviy birikmani tanlay olish qobiliyatini «til egasiga xos tanlov» (nativelike selection) deb atagan (Pawley & Syder, 1983), J.Sinclair esa so‘zlovchilar matnni asosan alohida so‘zlardan emas, tayyor

birikmalardan quradi, degan fikrni ilgari surgan (Sinclair, 1991). So‘zlarni faqat yakka holda o‘rgangan o‘quvchida aynan shu bilim yetishmaydi.

Yakka so‘zlarni o‘rganishning afzalliklari. So‘zlarni tarjimasi bilan ataylab yodlash ko‘pincha tanqid qilinadi, ammo tadqiqotlar bu usul o‘z vazifasi doirasida samarali ekanini ko‘rsatadi.

Yakka so‘zlarni o‘rganishning cheklovlari. Muammo shundaki, tarjima juftliklari o‘quvchida inglizcha va o‘zbekcha so‘zlar bir-biriga to‘liq mos keladi, degan tasavvurni uyg‘otadi. Bunday o‘quvchi so‘zlarni biriktirishi kerak bo‘lganda ona tili qoliplariga tayanadi. Yakka so‘zlar ro‘yxati muvofiq va nomuvofiq birikmalar o‘rtasidagi farqni yashiradi, natijada o‘quvchi taxmin qilishga majbur bo‘ladi.

Kollokatsiyalar orqali o‘rganishning afzalliklari. M.Lewis so‘z o‘rgatishda alohida so‘zlarga emas, «bo‘laklar»ga (chunks), ayniqsa kollokatsiyalarga e’tibor qaratishni taklif etgan (Lewis, 1993, 2000). A.Wray formulaik birikmalar real vaqtdagi muloqotda aqliy yukni kamaytirishini asoslagan (Wray, 2002), K.Conklin va N.Schmitt esa formulaik birikmalar ham til egalari, ham til o‘rganuvchilar tomonidan oddiy so‘z qatorlariga qaraganda tezroq o‘qilishini aniqlagan (Conklin & Schmitt, 2008). Eksperimental tadqiqotlar ham kollokatsiyalarni o‘rgatishni qo‘llab-quvvatlaydi. S.Webb va E.Kagimoto so‘zlarni ularning kollokatlari bilan birga o‘rganish nafaqat kollokatsiyalarni, balki so‘zlarning ma’nosini bilishni ham yaxshilashini ko‘rsatgan (Webb & Kagimoto, 2009). S.Webb, J.Newton va A.Chang uchrashlar soni kollokatsiyalarni o‘zlashtirishga kuchli ta’sir qilishini aniqlagan (Webb, Newton & Chang, 2013). F.Boers va S.Lindstromberg leksik yondashuvni ta’lim sharoitida takomillashtirish yo‘llarini ko‘rsatib berib (Boers & Lindstromberg, 2009), keyinroq interventsion tadqiqotlar sharhida o‘quvchilar e’tiborini formulaik birikmalarga qaratish foydali ekani haqida xulosa chiqargan (Boers & Lindstromberg, 2012). Bu R.Schmidtning payqash gipotezasiga mos keladi (Schmidt, 1990).

Korpuslar kollokatsiyalar manbai sifatida. Kollokatsiyalarni o‘rgatmoqchi bo‘lgan o‘qituvchiga qaysi birikmalar tipik ekani haqida ishonchli ma’lumot kerak. Bunday ma’lumotni korpuslar beradi (Sinclair, 1991). A.Boulton va T.Cobb meta-tahlili korpusdan foydalanishning til o‘rganishdagi samaradorligini tasdiqlagan (Boulton & Cobb, 2017), N.Vyatkina esa korpusga murojaat qilish turli darajadagi o‘quvchilarga kollokatsion topshiriqlarni bajarishda yordam berishini aniqlagan (Vyatkina, 2016). Maktab o‘quvchilari uchun SkELL ayniqsa qulay, chunki u qisqa misol gaplarni ko‘rsatadi va so‘zning kollokatlarini grammatik munosabatlar bo‘yicha guruhlaydi (Kilgarriff et al., 2015). COCA esa bir milliarddan ortiq so‘zdan iborat materialda chastota va janr ma’lumotlarini taqdim etadi (Davies, 2008).

Ilmiy adabiyotlarda ikki yondashuv ko‘pincha bir-biriga qarama-qarshi qo‘yiladi. Maktab amaliyoti uchun esa har bir yondashuv nima beradi va ularni qanday birlashtirish mumkin, degan savol muhimroq. Markaziy Osiyo umumta’lim maktablari sharoitida bu masalani o‘rgangan tadqiqotlar juda kam. Tadqiqot qiyosiy-tahliliy xarakterga ega. Unda ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, ikki yondashuvni mezonlar asosida qiyoslash, 8- va 9-sinf ingliz tili darsligi mavzularining lug‘at qismini tahlil qilish hamda tajriba-sinov jarayonida to‘plangan o‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutq namunalarini tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Tajriba-sinov ishlari 2025–2026-o‘quv yilida Buxoro viloyatining 13 ta umumta’lim maktabida – 11 ta tumanning har biridan bittadan hamda Buxoro va Kogon shaharlaridan bittadan maktabda o‘tkazildi. Unda 8–9-sinflarning 1500 ga yaqin o‘quvchisi ishtirok etdi. Nazorat guruhida so‘zlar darslikda berilganidek, ya’ni yakka holda tarjimasi bilan o‘rganildi. Tajriba guruhida esa xuddi shu so‘zlar muallifning «Korpus detektori» mashqlar tizimi va «CORPUS-BASED COLLOCATIONS’ LAB» sayti yordamida, SkELL va COCA korpuslaridan foydalanib, kollokatsiyalari bilan birga o‘rganildi. Tajribada 8-sinfning «Eating out», «Street food around the world», «The latest technology», «Computers and the internet» hamda 9-sinfning «It’s a challenge», «Our changing planet», «Cultural understanding: National parks», «Our holiday», «My place», «Strange houses» mavzularidan foydalanildi.

Ikki yondashuv to‘qqizta mezon bo‘yicha qiyoslandi: o‘rganish birligi; so‘zni bilishning qamrab olingan jihatlari; qo‘llanish haqidagi ma’lumot manbai; ona tilining roli; tipik topshiriqlar; yozma nutqqa ta’siri; og‘zaki nutqqa ta’siri; o‘quvchi mustaqilligi; talab etiladigan vaqt va kuch.

Ikki yondashuvning qiyosi. Qiyoslash natijalari 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval. So‘zlarni yakka holda va kollokatsiyalar orqali o‘rganish qiyosi

Mezon	Yakka so‘zlarni o‘rganish	Kollokatsiyalar orqali o‘rganish
O‘rganish birligi	so‘z va uning tarjimasi	so‘z va uning tipik hamrohlari
So‘zni bilish jihatlari	shakl va ma’no	shakl, ma’no va qo‘llanish
Qo‘llanish haqidagi ma’lumot manbai	o‘quvchining ona tiliga oid sezgisi	korpus ma’lumotlari (SkELL, COCA) va autentik misollar
Ona tilining roli	tarjima muqobili; ona tili qoliplari ongsiz ravishda ko‘chiriladi	ona tili ongli ravishda qiyoslanadi; nomuvofiq kollokatsiyalar alohida ajratiladi
Tipik topshiriqlar	ro‘yxatni yodlash, tarjima, so‘zni ma’nosi bilan moslashtirish	matnda payqash, korpusda izlash, kollokatsiyani to‘ldirish, og‘zaki va yozma topshiriqlar
Yozma nutqqa ta’siri	leksik xatolar ko‘p; birikmalar cheklangan va bir xil	birikmalar aniqroq va xilma-xilroq
Og‘zaki nutqqa ta’siri	so‘z izlash uchun to‘xtalishlar; gap so‘zma-so‘z quriladi	tayyor birikmalar esga olinadi; nutq ravonroq
O‘quvchi mustaqilligi	aniqlik o‘qituvchining tuzatishiga bog‘liq	o‘quvchi birikmani korpusda o‘zi tekshira oladi
Vaqt va kuch	o‘rganish va tekshirish tez	har bir birlikka ko‘proq vaqt; o‘qituvchidan ko‘proq tayyorgarlik

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ikki yondashuv eng avvalo so‘zni bilishning qaysi jihatini rivojlantirishi bilan farq qiladi. Yakka so‘zlarni o‘rganish shakl va ma’no bilan cheklanadi; bu nutq uchun zarur, ammo yetarli bo‘lmagan asos. Kollokatsiyalar orqali o‘rganish esa bilimni qo‘llanishgacha kengaytiradi, ya’ni o‘quvchiga yozish va gapirish uchun aynan kerak bo‘lgan bilimni beradi.

Bir xil leksika ikki usulda taqdim etilganda farq yanada aniq ko‘rinadi. 2-jadvalda 9-sinfning «It’s a challenge» mavzusidagi asosiy so‘zlar yakka so‘zlar ro‘yxati va SkELL yordamida tanlangan kollokatsiyalar to‘plami shaklida berilgan.

2-jadval. «It’s a challenge» mavzusi leksikasi ikki yondashuvda

Yakka so‘zlar ro‘yxati	Kollokatsiyalar to‘plami

Yakka so‘zlar ro‘yxati	Kollokatsiyalar to‘plami
challenge – qiyinchilik	face / meet / accept a challenge; a real challenge
decision – qaror	make / reach a decision; a difficult decision
goal – maqsad	set / achieve / reach a goal
effort – harakat	make an effort; a great effort
risk – xavf	take a risk; a high risk

Chap ustunni o‘rgangan o‘quvchi beshta so‘zni biladi. Undan hayotidagi biror qiyinchilik haqida gapirib berish so‘ralsa, u so‘zlarni o‘zbekcha qoliplar asosida biriktirib, I did a big effort and made a risk («katta harakat qildim», «tavakkal qildim») kabi gaplar tuzadi. O‘ng ustunni o‘rgangan o‘quvchi esa an’anaviy birikmalardan foydalana oladi va I made a great effort and took a risk deb yozish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Ikkinchi o‘quvchi ko‘proq so‘z o‘rgangani yo‘q, balki har bir so‘z haqida ko‘proq narsa o‘rgangan.

Yakka so‘zlarni o‘rganish bilan bog‘liq tipik xatolar. Tajriba-sinovning dastlabki bosqichida o‘quvchilarning yozma va og‘zaki ishlari tahlil qilinganda takrorlanuvchi xato turi aniqlandi: har bir so‘z alohida olganda to‘g‘ri qo‘llangan, ammo birikma ona tili qolipiga ko‘ra tuzilgan. Tipik misollar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval. So‘zma-so‘z tarjima natijasida yuzaga keladigan tipik xatolar

O‘quvchi tuzgan birikma	O‘zbekcha manba	An’anaviy kollokatsiya
do a mistake	xato qilmoq	make a mistake
do an effort	harakat qilmoq	make an effort
drink medicine	dori ichmoq	take medicine
strong rain	kuchli yomg‘ir	heavy rain
say a joke	hazil aytmoq	tell a joke
go to holiday	ta’tilga chiqmoq	go on holiday

Bu xatolarni ko‘proq so‘z o‘rgatish orqali bartaraf etib bo‘lmaydi, chunki ular so‘zlarning ichida emas, so‘zlar orasida joylashgan. Ular muvofiqlikning rolini ham yaqqol ko‘rsatadi: o‘zbek tilidagi qilmoq fe’liga ingliz tilida bir nechta fe’l (make, do, take, have) to‘g‘ri keladi, kuchli sifati esa ham strong, ham heavy so‘zlariga mos keladi. Tadqiqotlar eng qiyin deb topgan aynan shunday nomuvofiq birikmalar (Wolter & Gyllstad, 2011; Peters, 2016) yakka so‘zlar ro‘yxatida ko‘rinmay qoladi.

Xulosa. So‘zlarni yakka holda va kollokatsiyalar orqali o‘rganish so‘zni bilishning turli jihatlarini rivojlantiradi. Yakka so‘zlarni o‘rganish shakl va ma’no o‘rtasidagi bog‘lanishni tez hosil qiladi va so‘z bilan birinchi tanishuvda foydaliligicha qoladi. Biroq u qo‘llanish haqida bilim bermaydi va o‘quvchini so‘zlarni ona tili qoliplari asosida biriktirishga majbur qiladi. Natijada o‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqida do a mistake, drink medicine, strong rain kabi tipik xatolar paydo bo‘ladi.

Kollokatsiyalar orqali o‘rganish so‘z haqidagi bilimni qo‘llanishgacha kengaytiradi, ona tili ta’sirini kamaytiradi, nutq ravonligini qo‘llab-quvvatlaydi, xotirada boyroq bog‘lanishlar hosil qiladi hamda SkELL va COCA korpuslari yordamida o‘quvchini mustaqilroq qiladi. Buxoro viloyatining 13 ta maktabida 8–9-sinflarning 1500 ga yaqin o‘quvchisi ishtirokida o‘tkazilgan tajriba-sinovda so‘zlarni kollokatsiyalari bilan o‘rgangan o‘quvchilar yozma va og‘zaki nutqda kollokatsiyalarning 70–80 foizini to‘g‘ri qo‘lladi. Taklif etilgan «so‘z + hamrohlar» tartibi yakka so‘zlarni o‘rganishning tezkorligini kollokatsiyalarning kommunikativ qimmati bilan uyg‘unlashtiradi va uni darslikni o‘zgartirmasdan odatdagi ingliz tili darslarida qo‘llash mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Boers, F., & Lindstromberg, S. (2012). Experimental and intervention studies on formulaic sequences in a second language. Annual Review of Applied Linguistics, 32, 83–110.
2. Boulton, A., & Cobb, T. (2017). Corpus use in language learning: A meta-analysis. Language Learning, 67(2), 348–393.
3. Conklin, K., & Schmitt, N. (2008). Formulaic sequences: Are they processed more quickly than nonformulaic language by native and nonnative speakers? Applied Linguistics, 29(1), 72–89.
4. Davies, M. (2008–). The Corpus of Contemporary American English (COCA). https://www.english-corpora.org/coca/
5. Elgort, I. (2011). Deliberate learning and vocabulary acquisition in a second language. Language Learning, 61(2), 367–413.
6. Henriksen, B. (2013). Research on L2 learners’ collocational competence and development – a progress report. In C. Bardel, C. Lindqvist, & B. Laufer (Eds.), L2 vocabulary acquisition, knowledge and use: New perspectives on assessment and corpus analysis (pp. 29–56). EUROSLA.
7. Kilgarriff, A., Marcowitz, F., Smith, S., & Thomas, J. (2015). Corpora and language learning with the Sketch Engine and SKELL. Revue française de linguistique appliquée, 20(1), 61–80.
8. Laufer, B., & Waldman, T. (2011). Verb-noun collocations in second language writing: A corpus analysis of learners’ English. Language Learning, 61(2), 647–672.